

HISTORY OF URANIUM DEALS - IN THE EXAMPLE OF UCHKUDUQ

Ilyos Abdikomilovich Kuljonov

Navoi State University

iquljonov@mail.ru

Abstract. Since the beginning of the 20th century, geologists have carried out large-scale geological exploration work to discover uranium deposits in Central Asia. In the 20-60s of the last century, as a result of scientific research conducted by Soviet geologists in this area, large uranium deposits were discovered and enterprises for their processing were launched. The article analyzes the work carried out by foreign and local researchers to shed light on the history of uranium deposits in the region following the discovery of the Uchkuduk uranium deposit.

Keywords: minerals, geology, uranium, uranium deposits, Kyzylkum, Uchkuduk, foreign and local researchers, scientific works.

URAN KONLARI TARIXI -UCHQUDUQ MISOLIDA

Ilyos Abdikomilovich Quljonov,

Navoiy davlat universiteti

iquljonov@mail.ru

Annotatsiya. XX asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyo xususidan, O'zbekistonda hududida ham uran konlarini topish bo'yicha geologlar tomonidan keng qamrovli geologik qidiruv ishlari olib borilgan. O'tgan asrning 20-60-yillarida esa sovet geologlarining bu borada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida yirik uran konlari topildi va ularni qayta ishlash korxonalarini ishga tushirildi. Maqolada Uchquduq uran konini ochilishi bo'yicha xorij va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan hududda uran konlarining tarixini yoritilishi bo'yicha olib borilgan ishlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qazilma boyliklar, geologiya, uran, uran konlari, Qizilqum, Uchquduq, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar, ilmiy asarlar.

O‘zbekistonda bugungi kunda juda ko‘plab sohalarda islohotlar olib borilmoqda. Xususan, respublika uran sanoati tarmog‘i ham taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.

XX asrning 20-50-yillarida O‘rta Osiyo hududida geologlar tomonidan olib borilgan geologik qidiruv ishlari natijasida uran konlari topildi. Maqolada uran konlari, uni qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlar, Uchquduq uran konlari ishlab chiqarish korxonalarining tarixi yoritilgan. Tayanch iboralar: Qizilqum, Uchquduq, geologiya, uran, kombinat, geotexnologik kon.

Bugungi kunda Uchquduq—zamonaviy infratuzilmaga ega, O‘zbekistonning iqtisodiy qudratini ta‘minlovchi eng muhim sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Uchquduqning tarjimai holi 1956-yilda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining shakllanishidan ikki yil oldin boshlangan. O‘sha paytda Leninobod kon-kimyo kombinatining 27-korxonasi buyurtmachi va qurilish menejeri sifatida Kapital qurilish boshqarmasi ishlagan. O‘sha uzoq yillarda hech kim Uchquduqda tashkil etilgan korxonaga butun Leninobod zavodidan ancha katta bo‘lishini tasavvur ham qila olmagan edi[1].

O‘zbekiston hukumatining 1959 yil sentyabrdagi 343-sonli qarori bilan Uchquduqqa shahar tipidagi posyolka maqomi berildi. Mazkur hududga 1960-61 yillarda 290 kmlik Karmana-Uchquduq temir yo‘li qurildi, 60 km bo‘lgan Mingbuloq-Uchquduq suv quvuri va 320 km.elektr liniyasi olib kelindi [2].

Uchquduq koni hududi cho‘lning geografik markazida, suv, yo‘llar yoki biron bir aholi punkti bo‘lmagan hududda joylashgan. Ko‘mir sanoati mutaxassislari guruhining ushbu hududga taklif qilingani "bunday geologik sharoitlarda bunday konlarni o‘zlashtirish mumkin emas" degan xulosaga kelishi bejiz emas.

Sobiq Ittifoq va AQSH o'rtasida yadro qurolini yaratish bo'yicha raqobat vujudga kelganligi XX asrning 40-50-yillarida boshlangan. Bu haqida olimlar tomonidan ko'plab ilmiy maqolalar va kitob yozilgan. atom energiyasi olish uchun tadqiqotchi olimlar tomonidan keng ko'lamli ishlar borildi. Xususan, rus olimi V.I. Vernadskiyning Kimyo-texnik ilmiy nashriyotida 1922 yilda chop etilgan "Insholar va nutqlar" kitobida atom energiyasi to'g'risida o'zining qarashlarini bayon etadi. Shu tariqa sovet hukumati tomonidan O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududida tabiiy radioaktiv xomashyoni qidirib topish bo'yicha geologik qidiruv ishlari boshlab yuboriladi. O'zbekiston hududida olib borilgan dastlabki geologik qidiruv tadqiqotlari natijasida Uchquduq hududida yirik uran konlari topildi. O'sha paytda sobiq Ittifoqning atom sanoati uchun zarur bo'lgan uranni qazib olish ishlarini tezlashtirish maqsadida boshqa respublikalardan bu yerga ko'plab soha mutaxassislari yuborildi. Uchquduqda uran konlarini o'zlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati Uchquduq hududida uran rudasini qazib olish va qayta ishlash maqsadida tashkil etilgan edi [3]. 1958-yil 20- fevralda sobiq Ittifoq hukumatining qarori bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati (1967 yil 1 yanvarga qadar korxonaga O'rta mashinasozlik vazirligining 2-sonli kombinati deb nomlangan) tashkil etildi. 1958 yilda Uchquduq uran konlarining bir qismini sanoat usulida o'zlashtirish ishlari boshlandi. Ilmiy tadqiqot ishlarida va konni o'zlashtirishda yangi texnologik usullar, eng samarali uslublarini qo'llashni talab qilar edi. Shu sababli, uranni ochiq va yer osti usulida qazib olish ishlari bir vaqtda olib boriladi. XX asrning 50-yillarida sobiq Ittifoqning maxsus ilmiy tadqiqot instituti xodimlari olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida Uchquduq urani fizik-kimyoviy xususiyatining o'ziga xosligi, texnik tuzilishi (sxemasi) bilan boshqa uran konlaridan ajralib turishi aniqlanadi. Uchquduqda uran konlarini izlab topish maqsadida tajriba sexi tashkil qilindi. Shu bilan bir qatorda uranni qayta ishlaydigan zavodni ham barpo etish zarur edi. Yangi gidrometallurgiya zavodi qurilishi uchun qulay joy kerak

edi. Mutaxassislarning o'rganishlari natijasida mazkur zavodni qurish uchun temiryo'lga yaqin bo'lgan Karmana (hozirgi Navoiy shahri) hududi tanlandi. Buning uchun bir qancha omillar, ya'ni birinchidan, bu yerda Karmana temiryo'l stansiyasining mavjudligi, ikkinchidan, Zarafshon daryosiga yaqinligi, uchinchidan, yangi issiqlik elektr stansiyasini barpo etish uchun imkoniyat mavjud edi. 1964 yilda 1-gidrometallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi [4]. Konchilar tomonidan rudani qazib olish uchun ochiq va shaxta usullaridan keng foydalanildi. Natijada o'n bitta karyer va yerosti qazish ishlarini olib borish uchun o'n to'rtta shaxta ishga tushirildi. 1962-yilda "Uchquduq" geotexnologik koni tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kombinatni malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida "Taboshar" (Tojikiston) va "Moylisoy" (Qirg'iziston) uran konlaridan sohaning tajribali mutaxassislari jalb etildi. Qizilqumda uran konlari topilishi, o'z navbatida, bu yerda aholi yashash joylari ham barpo etilishiga olib keldi. Uchquduq shahrining tarixi bu yerda uran konining ochilishi bilan bog'liq. Uchquduq shahrining qurilishi 1956-yil bahorida boshlanib, dastlabki uy-joylar harbiylar tomonidan baraklar shaklida barpo etildi [5]. Uranga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi sababli "Uchquduq" geotexnologik konidagi sayoz va og'ir kon-geologik sharoitlarida joylashgan uran rudasini qazib chiqarishda an'anaviy ochiq va yerosti usulidan ko'ra uranni yerostida eritma hosil qilish yo'li bilan olish samarali edi. Buning uchun shu kabi konlarni ishga tushirishning yangi texnologik usulini yaratish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Mazkur yangi texnologik usulda – uran yerosti quduqlarida eritib saralanadi. Ya'ni bu usul bilan qattiq material tarkibidagi elementlar eritmalar yordamida ajratib olinib boshlandi. Uran qazib chiqarishning mazkur ilg'or usuli kombinat mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan amaliyotga joriy etildi. 1969-yildan boshlab mazkur texnologiya keng tatbiq etilishi natijasida oldinlari ochiq kon usulida ishlash uchun yaroqsiz hisoblangan "Aytim" konida yangi uchastkalar ishga tushirildi [6]. O'zbekiston hududida uran qazib

oluvchi asosiy bo‘linmalaridan biri bu 5-kon boshqarmasi edi. Mazkur uran qazib oluvchi korxonada 1971-yil 1 fevralda Leninobod kon-metallurgiya kombinatining tajriba-sanoat uchastkasi sifatida tashkil etilgan [7]. Uchquduqdagi uran konining ochilishidan keyin hudud bo‘ylab olib borilgan geologik qidiruv ishlari yana ko‘plab konlar ochilishiga sabab bo‘ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida kon boshqarmasi faoliyatida qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. Iqtisodiy tanglik vujudga keldi. Negaki, mazkur boshqarma sobiq Ittifoq davrida O‘rta mashinasozlik vazirligiga qarashli Leninobod kon-kimyos kombinati tarkibida edi. 1993-yilda 5-kon boshqarmasi Tojikistonning Leninobod kon-metallurgiya kombinatidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga o‘tkazildi [8]. Kon boshqarma tarkibida o‘n to‘rtta uran konlarini o‘zlashtirayotgan 4 ta geotexnologik konlar mavjud. 1- va 2-geotexnologik konlarida tayyor mahsulot chiqarish bilan birga mahsuldor eritmalardan AR-0 markasidagi ammoniy perrenati shaklida reniy olinmoqda. Boshqarmaga qarashli “Yog‘du”, “Kuhnur”, “Janubiy Sugrali”, “Shimoliy Konimex”, “Teriquduq” kabi yangi konlarda oksidlanish reagentlarini tanlash, yangi uskunalarni sinab ko‘rish hamda noqulay kon-geologik sharoitlardagi (qatlamlarning katta chuqurlikda joylashgani, yuqori karbonatlilik, yer osti suvlari haroratining yuqoriligi va boshqalar) uranni qazib chiqarishda kon ustini ochish va yer ostida eritib olishning samarali texnologiyalarini aniqlash maqsadida sinov va tajriba-sanoat ishlari olib borildi.

Mahsulot raqobatbardoshligi va uni yetkazib berishning ishonchliligi kombinatga jahon uran bozoriga kirishga hamda uran ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda beshinchi o‘rinni egallashga imkon berdi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan uran chala oksidi “Itochu Corporation” (Yaponiya), “Marubeni Corporation” (Yaponiya), “Cameco Corporation” (Kanada), “Korea Hydro & Nuclear Power Co.Ltd.” (Koreya Respublikasi), “CGNPC Uranium

Resources Co.Ltd.” (Xitoy) kabi xorijiy kompaniyalar va boshqa bir qator yirik qayta ishlash zavodlariga yetkazib beriladi. 2022 yil 1 yanvardan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi transformatsiya qilindi. Mamlakatimizda tabiiy uran va nodir metallarni qazib olish bo‘yicha “Navoiyuran” davlat korxonasi tashkil etildi. Bu korxonada kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqi yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yirik loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxat:

1. Kucherskiy N.I., «Золота Кызылкумов».Ташкент. «Шарк». 1998, 30-bet
2. Sanaqulov Q., Raupov X., Sadriddinov N. O‘zbekistonda kon-metallurgiya tarixi. – T.: “MASHHUR-PRESS”, 2019. – 221 bet.
3. Sanaqulov Q. Yangi istiqbollar sari. – T.: “MASHHUR-PRESS”, 2018. – 12 bet.
4. Sanaqulov Q., Raupov X., Sadriddinov N. O‘zbekistonda kon-metallurgiya tarixi. – T.: “MASHHUR-PRESS”, 2019. – 191 bet.
5. Asrga tatigulik yillar. Albom-kitob. Ma'sul muharrir X. Raupov. – T: “SAHHOF”, 2021, 14-82 betlar.
6. Kucherskiy N.I., Astvatsaturyan G.G., Berdnikov E.A. va boshqalar. Navoiy kon-metallurgiya kombinati. Yaratilish va rivojlanish tarixi. Tahrir: Rizaev S.R. 14- 323 betlar.
7. Sanaqulov Q. Yangi istiqbollar sari. – Toshkent: “MASHHUR-PRESS”, 2018. – 54 bet.
8. Djulibekov N. Navoiy KMKning turli rivojlanish bosqichlarida moliyaviy-iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: “SAHHOF”, 2020. 83-86 betlar.